

## O'TKIR HOSHIMOV IJODIDA ONA SIYMOSI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11219171>

### **Boboqulova Sevinch Bobur qizi**

*Samarqand davlat chet tillar instituti*

*Sharq tillar fakulteti 23 25 guruh talabasi*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqola taniqli o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimovning hayot yo'li va "Dunyoning ishlari" asarini badiiy tahliliga bag'ishlanadi. Undagi Ona obrazi, shuningdek sharq ayoli siymosining fazilatlarini ijodkor tomonidan qanchalik mahorat bilan tasvirlanganligi haqida atroflicha so'z yuritiladi.

### **Kalit so'zlar**

*Ona obrazi, badiiy asar, davr tasviri, zamon, makon, ayol tuyg'usi, tushuncha, hikoya.*

Dunyodagi barcha millat va xalqlarni birlashtiradigan bitta tuyg'u bor, bir muhabbat bor. Bu – ona muhabbati, ona mehri. Badiiy adabiyotlarning eng sarasi ona haqidagi, she'rlarning eng go'zali ham ona muhabbatini tarannum etganidadir. Ona obrazi barcha xalqlar adabiyotidagi eng muhim obrazlardan biri sanaladi. Biz rus, yapon, koreys xalq og'zaki adabiyotiga ham e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, barchasida onalar tomonidan kuylanadigan, farzandiga mehru-muhabbatini izhor etadigan alla janri mavjud. Alla bolaning onasi tomonidan aytiladigan ilk qo'shiq bo'lib, bu qo'shiqda onaning orzulari, armonlari barcha-barchasi o'z ifodasini topadi. Xuddi mana shunday onalar haqida, uning mehru-muhabbati haqida yozilgan o'zbek adabiyotidagi eng go'zal asar, qo'shiqday sokin kuylanib, tinglanadigan asar O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidir. "Dunyoning ishlari" – O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub memuar qissa. Asar katta-kichik hikoyalardan iborat, uzoq yillar davomida yozilgan va to'liq tarzda 2005-yilda "Sharq" nashriyoti tomonidan nashr etilgan. Keyinchalik boshqa nashriyotlar tomonidan ham ko'p bora qayta nashr etildi. Jumladan, 2015-yilda Yangi asr avlodi nashriyoti tomonidan 336 betli qattiq muqovada nashr etildi. Shu yili Meriyus nashriyoti tomonidan 272 betda, 3000 nusxali qattiq muqovada nashr etildi. Ushbu nashrning ustki qismida qishloq ko'chasidagi uylar va adibning onasi tasvirlangan. "Dunyoning ishlari" ingliz tiliga tarjimasini 31 martdan Amazon saytida sotuvga chiqqan. "Dunyoning ishlari"ning reklamasi Nyu-York metrosida ham paydo bo'lgan.

Tarjimonlar Mark Ris va Abdulla Ro'ziyevlar asar nomini ingliz tiliga "Such is Life" deb o'girishgan. Risning yozishicha, kitobni tarjima qilishdan nashr qilishgacha 5 yil vaqt ketgan. Ris kitobni nashr qilishgacha bo'lgan bosqichda qatnashganlarga minnatdorchilik bildirgan.

Kitobning orqa tomonida adibning quyidagi so'zlari keltirilgan: "Dunyoda hech bir chegarani tan olmaydigan va quyosh kabi muttasil nur sohib turadigan sehrli kuch bor. Bu - Ona mehri! Alloh Onani shunday yaratgan!"

O'tkir Hoshimovning asarlarida Ona obrazini yaratilishi va yoritilishi uning mahoratini ko'rsatuvchi yetakchi omillardan biridir. Uning kitobxonlarga juda manzur bo'lgan ko'plab asarlarida ona obrazi alohida ahamiyatga ega. Misol uchun "Ikki eshik orasi", "Dunyoning ishlari", "Tushda kechgan umrlar", "Urushning so'nggi qurboni", "Odam ovozi", "Nur borki, soya bor", "O'zbeklar" badiiy asarlaridir. O'tkir Hoshimov ijodida "Ikki eshik orasi" romani alohida ahamiyatga egadir. Unda adib qariyb qirq yillik davrni o'z ichiga olgan va bir qator chigal hamda murakkab taqdirler misolida o'z xalqining tarixiy qismatini mahorat bilan umumlashtirib berdi. Shu tufayli ham roman 1986-yilda Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Asarda ona siymosi hamda hayot mobaynida inson tug'ilishi unib o'sishi hamda hayot qiyinchiliklariga uchrashi haqida gap boradi. Ona siymosi dunyodagi barcha xalqlar uchun muqaddas va mo'tabardir. Ularni birlashtirib turuvchi mushtarak fazilatlar bisyor, albatta. Lekin, ayni vaqtda, har bir xalqqa, millatga mansub ona siymosi o'z fe'l-atvori, tabiati, ichki va tashqi dunyosi, hatto, portreti bilan muayyan darajada farqlanib turadi. Ona butun bir xalq, butun bir millatning o'ziga xosligi, shakllanishi, namoyon bo'lishida alohida o'rin tutuvchi siymodir, va, ayni vaqtda har bir inson kabi jamiyat, muhit, sharoitning vakili sifatida o'ziga xos bir individumdur. "Odamning qalbida qanday olijanob tuygular mavjud bo'lsa, ularning barchasi avvalo onadandir".

Muallifning "Gilam paypoq" hikoyasida, onaning deyarli yalangoyoq holatida bolasining umri, uning sog'lig'i uchun o'zining sog'lig'idan voz kechishga, kerak bo'lsa, uning o'rniga o'zi ajalga tik qarashga tayyorligidan buni yaqqol ko'rish mumkin. Tibbiyot nuqtai nazaridan qaralganda, og'ir homiladorlik holatlari yoki tug'ruq vaqtida onaning va bolaning hayotiga xavf bo'lgan holatlarda, deyarli barcha shifokorlar bolaning umridan voz kechgan holda onani qutqarishga bel bog'lashadi. Ushbu mantiqqa asosan, ona yana bola ko'rishi mumkin, ammo bola onani qaytara olmaydi. Lekin, muallif hikoyasining mantig'i hech bir narsa ona hissiyotidan ustun emasligidan dalolat beradi.

Bu asarni hissiyotsiz o'qish mumkin emas. "Dunyoning ishlari" asarini

ONAg qo'yilgan abadiy yuksak ehtirom ramzi deyish mumkin. ONA shunchalar buyuklikda tengi yoqki, uning ta'rifiga atalgan asarlar, hikoyalar, she'rlar juda-juda ko'p va adog'iga yetmaydi. Har bir kuchli inson ortida, uning suyanchig'i bo'lgan, doimo ishonch bildiradigan, har vaqt qo'llab turguvchi Onasi bo'ladi. Balki "Dunyoning ishlari" ana shunday betakror zotni madh etganligi uchun barchamizning qalbimizdan joy olgandir.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. T.: 2008.
2. Hoshomov O'. Dunyoning ishlari. T.: 2018.